SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

# Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da**




**2020- yil**




**2021- yil**




**2022- yil**

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM**dagi ulushi **69,2** % ni, 2021- yilning yanvar-iyunida 67,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **16,2** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-iyunida **1238** mingtadan ortiq yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,6** foizga kam demakdir.

## 2022- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **407** ta, savdoda **358** ta sanoatda **202** ta, qurilishda **76** ta , yashash va ovqatlanishda **45** ta, tashish va saqlashda **24** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## 2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 96,8 |
| Sanoat | 29,8 |
| Qurilish | 83,2 |
| Investitsiya | 72,0 |
| Savdo | 91,7 |
| Xizmatlar | 51,1 |
| Eksport | 60,3 |
| Import | 67,4 |

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 14334 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 1238 |

2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

- Savdo — 36,0 %
- Sanoat — 15,4 %
- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 16,2 %
- Qurilish — 11,2 %
- Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar — 6,4 %
- Tashish va saqlash — 3,8 %
- Axborot va aloqa — 1,3 %
- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish — 1,0 %
- Boshqa faoliyat turlari — 8,7 %




1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha 1- iyulga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021- y. yanvar-iyun ■ 2022- y. yanvar-iyun

## 2022- yil yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Guliston shahri – 19,9 %, Sardoba tumani – 14,3 %, Sirdaryo tumani - 14,0 %, Oqoltin tumani – 11,1 %, Guliston tumani – 8,5 Boyovut tumani – 7,4 %, Guliston tumani – 7,4 %, Mirzaobod tumani – 7,3 % hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




Ma’lumot uchun: 2022- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida
407 ta

Savdoda
358 ta

Sanoatda
202 ta

Qurilishda
76 ta

## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yil 1-iyul holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 16,2 birlikni tashkil etdi.

**Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-iyul holatiga ko‘ra***




**2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***

2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Guliston shahrida 41,0 birlik, Yangiyer shahrida 21,3 birlik, Shirin shaharda 17,6 birlik, Mirzaobod tumanida 16,3 birlik, Oqoltin tumanida 15,9 birlik, Sirdaryo tumanida 15,3 birlikni tashkil etgan.




*Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning 1- iyul holatiga koʻra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Guliston shaharda **41,0** birlik, Yangiyer shaharda **21,3** birlik, Shirin shaharda **17,6** birlik, Mirzaobod tumanida **16,3** birlik, Oqoltin tumanida **15,9** birlik, Sirdaryo tumanida **15,3** birlik, Sayxunobod tumanida esa **14,3** birlikni tashkil etdi.

**Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- iyul holatiga koʻra***

**Eng yuqori koʻrsatkich**
**Guliston shaharda**
**- 41,0 birlik.**

**Oʻrtacha koʻrsatkich**
**Sirdaryo tumanida**
**- 15,3 birlik.**

**Past koʻrsatkich**
**Xovos tumanida**
**- 7,3 birlik.**

**2022- yilning 1- iyul holatiga koʻra har 1000 aholiga toʻgʻri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng koʻp tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarini qoʻshgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 85,8 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 60,3 % ini tashkil etdi.



## Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




## 2022- yilnig yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Shirin shaharda – 100,0 %, Xovos tumanida – 100,0 %,Sayxunobod tumanida – 100,0 %, Yangiyer shaharda – 99,9 %, Sardoba tumanida – 99,5 % va Boyovut tumanida 57,1 % ni, eng past ko‘rsatkich Guliston tumanida – 0,0 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **181,5** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **67,4** % ni tashkil etdi.




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi



2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Sayxunobod tumanida – 100,0 %, Sardoba tumanida – 100,0 %, Sirin shahrida – 99,8 %, Yangiyer shahrida – 99,7 %, Oqoltin tumanida 99,1 % ni tashkil etdi. Eng past ko‘rsatkich Sirdaryo tumanida – 34,3 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

### 2022- yilning yanvar-iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 642,7** milliard soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo (558,5 mlrd. soʻm), Guliston shahri (290,8 mlrd. soʻm), Yangiyer shahrida (169,8 mlrd. soʻm), Sayxunobod (166,1 mlrd. soʻm) va Boyovut (107,0 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi. Shirin shahrida (13,4 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past boʻlib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati






**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi**

2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **21,6** % ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sardoba tumani(100,0%),Sayxunobod tumani (77,9 %), Xovos tumani (77,5 %), Yangiyer shahri (63,9 %), Guliston shahri (59,1 %), Sirdaryo tumani (47,8 %) va Mirzaobod tumani (44,1 %) tashkil etdi. Sirin shahrida (0,6%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **1 876,4** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,7** % ni tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (**679,2** mlrd. so‘m), Sirdaryo (**382,9** mlrd. so‘m), Mirzaobod (**132,5** mlrd. so‘m), Yangiyer shahri (**183,9** mlrd. so‘m), Oqoltin (**86,4** mlrd. so‘m), va Boyovut (**79,4** mlrd. so‘m), tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar- iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 112,6** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **83,2** % ni tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **94,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (363,0 mlrd. so‘m), Mirzaobod (218,6 mlrd. so‘m), Sirdaryo (90,7 mlrd. so‘m), Yangiyer shahri (87,5 mlrd. so‘m), Guliston (73,5 mlrd. so‘m), Xovos (71,5 mlrd. so‘m), hamda Boyovut (71,5 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi**






2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 203,0** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **51,1**% ni tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **109,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Guliston shahri (331,0 mlrd. so‘m), Sirdaryo (229,6 mlrd. so‘m), Yangiyer shahri (141,2 mlrd. so‘m), Boyovut (80,6 mlrd. so‘m), Mirzaobod (80,4 mlrd. so‘m), Xovos (75,9 mlrd. so‘m) va Guliston (69,7 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# 2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda




Yuk aylanmasida




Yo‘lovchi tashishda




Yo‘lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 91,5 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,5 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 82,2 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,8 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- iyun oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,1 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,1 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,3 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **499** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 148 (29,7 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 295 (59,1 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 56 (11,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

**2022- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 41,5 % (207 ta), xizmatlar sohasida – 23,9 % (119 ta), sanoatda – 15,2 % (76 ta), qurilishda – 10,0 % (50 ta) , qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 9,4 % (47 ta) ni tashkil etdi.



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (134 ta), Sirdaryo (72 ta), Yangiyer shahri (48 ta), Boyovut (43 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2022- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda – 45,3 %, xizmatlar – 25,7 % ni, qurilish sohasida 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi savdo sohasi – 39,3 % ni, xizmatlar sohasida – 25,4 % ni, sanoat sohasida 15,3 % ni tashkil etdi.

## 2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda 45,0 % ni, xizmatlarda 24,6 % ni, sanoat sohasida 15,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi savdoda 38,8 % ni, xizmatlarda – 24,3 % ni, sanoat sohasida 14,6 % ni tashkil etdi.

## 2022- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

| | O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 41,9 | 44,5 | 13,6 |
| Band bo'lganlar soni | 18,5 | 72,7 | 9,3 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 36,1 | 53,5 | 10,4 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 27,3 | 58,8 | 13,9 |
| Raqobat muhiti* | 43,2 | 48,9 | 7,9 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 53,7 | 41,9 | 4,4 |
| Band bo'lganlar soni | 27,3 | 70,1 | 2,6 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 40,9 | 55,1 | 4,0 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 34,7 | 59,9 | 5,4 |
| Raqobat muhiti* | 48,1 | 49,5 | 2,4 |

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi oʻzgarishlar, % da




## 2022- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda oʻzgarishlar istiqboli, % da

